

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH GLOBALLASHUV DAVRINING MUHIM SHARTI SIFATIDA

*A.Mamaroziqov,
QDPI o'qituvchisi.*

Annotatsiya

Maqolada yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish globallashuv davrining muhim sharti sifatida etirof etilib yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning strategik yo'nalishlari haqida fikr va muloxazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati, globallshuv, PF-60-sonli Farmoni, PF-4947-son Farmoni, fuqarolik jamiyati, demokratiya.

Bugungi kunda dunyoda Yoshlar masalasi, ularning etuk shaxs bo'lib kamolga etishi har qanday davlat kelajagini belgilovchi asosiy mezondir. Shu o'rinda malakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – Yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat"- deya bildirgan hikmatli fikrlari naqadar asosli ekanligi shubhasiz. 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmonning 4-bandida «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. Shunimngdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli farmoni Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega Yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llabquvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish asosiy maqsad qilib belgilangan. Qolaversa O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb atalgan 2017 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida jiddiy ishlar qilinishi 25 ta topshiriqning bajarilishi aniq qilib belgilab qo'yildi.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Ma'lumki, 2016 yilning 14 sentyabrida O'zbekiston Respublikasining 33 moddadan iborat «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Shu o'rinda «yoshlarga oid davlat siyosati» tushunchasi nimani anglatishini bilib olishimiz lozim. yoshlarga oid davlat siyosati deganda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

O'zbekiston Prezidentining xalqimiz o'rtasida, ayniqsa yoshlar o'rtasida kitobxonlik an'anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirayotgan sa'y-harakatlari diqqatga sazovordir. Ana shu yo'lda 2017 yilning sentabr oyida o'quvchi yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash maqsadida ta'lim muassasalarida «Men sevib o'qigan kitob» va «Eng yaxshi kitobxon» tanlovlari tashkil etildi. Bunday tadbirlar vositasida o'quvchi yoshlar turli yot g'oya va mafkuralardan himoya qilinadi, ularning mafkuraviy immuniteti mustahkamlanadi hamda jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror tontirishga hissa qo'shiladi.

Yoshlarni ona Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritish maqsadida butun yil davomida O'zbekiston Badiiy akademiyasi va bir qator vazirliklar tashkilotchiligida yurtimizning chekka hududlarida Badiiy akademiya tizimi tashkilotlari va ta'lim muassasalari hamkorligida xalq rassomlari, xalq ustalari bilan bolalar, Yoshlar va ularning ota-onalari uchun «Bunyodkor xalqim bilan muloqot ijodim ilhomi» mavzusida maxorat darslari va ijodiy uchrashuvlar tashkil etildi. Yosh avlodni tarbiyalash, uning ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Bu chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

«Biz-Vatanga tayanchimiz», «Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz-YOSHLAR» degan shiorlar ostida aksiyalar tashkil etish;

«Adabiyot va san'at shaxs ma'naviyatini boyitish va yuksaltirish omili» mavzusida yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar, adabiyotshunos olimlar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish; badiiy adabiyotlarni inventarizatsiyadan o'tkazish, axborot-resurs markazlarini yangi kitoblar bilan boyitish;

«Oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi» mavzusida axborot va metodik materiallar tayyorlash;

Vatanimiz ravnaqini ta'minlashda yoshlarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan «Eng buyuk jasorat ma'naviy jasoratdir» mavzusida davra suhbatlari tashkil etish;

Yoshlar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, YOSHLARDA Internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminartreninglar tashkil qilish;

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

«Fuqarolik jamiyatida shaxs tarbiyasi va unda oila institutining o'rni» mavzusida anjumanlar o'tkazish.

Bu kabi tadvirlar yoshlarimiz o'rtasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish, axloqiy va media madaniyatni oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari, treninglar, viktorinalar, tushuntirish tadbirlarini o'tkazish, mahallalarda aholi va yoshlar bilan terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashishga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi va bu borada ham tegishli vazifalar belgilandi. Notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, «ommaviy madaniyat» ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda otaonalarning mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlar, seminarlar o'tkazish, buklet, plakat, ko'rgazmali qo'llanmalar chop etish, ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil kilish yoshlarning «ommaviy madaniyat» ta'siriga qarshi immunitetini mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy madaniyatini oshirish, sog'lom turmush tarziga, sog'lom oila qurishga intilishlarini rag'batlantirishni ko'zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda jamiyatimiz yoshlarining har tamonlama barkamol shaxs sifatida voyaga etishi va kelajakda o'z qobilyati va saloxiyatini erkin namoyon eta olishi uchun shar-sharoitlarning yaratilishi bugungi kunda Yangi O'zbekiston yoshlarga oid davlat siyosatining eng ustuvor maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'hati

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" 2022.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016 y.
3. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi. https://storage.kun.uz/source/10/SJaL3p_FU6qoDp7zFw2bT_37T8ENktBw.jpg
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha arakatlar strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.